

O'ZBEKISTONDA KICHIK KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI YURITILISHIDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNING HUQUQIY HAMDA AMALIY YECHIMLARI

Rustamova Irodaxon

SDVMCHBU Toshkent filiali "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi talabasi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Kichik korxonalar ko'plab ish o'rinlarini yaratishda, raqobat muhitini rivojlantirishda va byudjetga tushumlarni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu sohada faoliyat yuritayotgan subyektlar ko'pincha buxgalteriya hisobi yuritishda muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu maqolada aynan kichik korxonalarda uchrayotgan buxgalteriya muammolari, ularning huquqiy asoslari, tahlili va real hayotga asoslangan amaliy yechimlari keng yoritiladi.

ASOSIY QISM

1. Muammo: Malakali buxgalter kadrlar tanqisligi Ko'plab kichik korxonalarda buxgalteriya yuritish uchun to'liq stavkada mutaxassis yollash imkoniyati mavjud emas. Natijada, buxgalteriya funksiyalari rahbarlar yoki boshqa mutaxassis bo'lmagan xodimlar tomonidan bajariladi. Bu esa soliq, statistika va moliyaviy hisobotlarda xatolarga olib keladi, yirik jarimalarga sabab bo'ladi. Yechim: Davlat tomonidan buxgalteriya xizmatlarini autsorsing qilish tizimini qo'llab-quvvatlash zarur. Shu bilan birga, masofaviy buxgalteriya xizmatlarini yo'lga qo'yish, buxgalterlar uchun qayta tayyorlov kurslarini subsidiyalash va ularni hududiy moliya bo'limlari bilan bog'liq holda ishlashga jalb qilish foydali bo'ladi.

2. Muammo: Normativ-huquqiy hujjatlardagi tez-tez bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lmashlik Kichik biznes subyektlari ko'pincha mavjud qonunchilikdagi o'zgarishlardan kech xabardor bo'lishadi. Ayniqsa, soliq, buxgalteriya standartlari, mehnat qonunchiligi kabi sohalardagi yangiliklarni bilmaslik muhim huquqiy xatolarga olib keladi. Yechim: Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi va boshqa tegishli

organlar tomonidan yagona axborot tizimi asosida buxgalterlar uchun yangiliklar va sharhlar yetkazib berilishini ta'minlash kerak. Bundan tashqari, kichik korxonalar uchun maxsus interaktiv mobil ilova ishlab chiqilishi va u orqali normativ yangiliklar, maqolalar va video sharhlar berilishi lozim.

3. Muammo: Elektron hisobot tizimlari bilan ishlashdagi murakkabliklar Davlat organlari tomonidan joriy qilingan elektron hisobot platformalaridan foydalanishda kichik korxonalarda texnik muammolar va bilim yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Bu esa hisobotlarni vaqtida va to'g'ri topshirilmasligiga sabab bo'ladi.

Yechim: Elektron tizimlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan bepul treninglar tashkil qilish. Shuningdek, texnik yordam xizmatlarini soddalashtirish, onlayn yordam markazlari va videodarsliklar orqali qulaylik yaratish zarur.

4. Muammo: Buxgalteriya dasturlari va texnologiyalarining cheklanganligi Aksariyat kichik korxonalar buxgalteriya yuritishda Microsoft Excel kabi oddiy vositalardan foydalanmoqda. Bu esa axborot xavfsizligi, avtomatlashtirish va tezkorlik jihatidan kamchiliklarga olib keladi.

Yechim: Mahalliy ishlab chiqilgan arzon va qulay buxgalteriya dasturlarini targ'ib qilish, dasturchilar va kichik biznes hamkorligida ixtisoslashgan tizimlar yaratish. Bunda davlat dasturlari orqali moliyaviy rag'batlantirishlar muhim rol o'ynashi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik korxonalarda buxgalteriya yuritishdagi muammolar tizimli va ko'p qirrali bo'lib, ularni bartaraf etish uchun huquqiy, texnik va inson resurslariga doir yechimlar zarur.

Bu borada davlat idoralari, ilmiy muassasalar va xususiy sector o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali salmoqli natijalarga erishish mumkin. Mazkur maqolada bayon etilgan yechimlar esa real sharoitlarga asoslangan bo'lib, O'zbekistonning hozirgi iqtisodiy muhitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan takliflardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ- 4604-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'lari va tavsiyalari.
4. www.lex.uz – normativ-huquqiy hujjatlar portali.
5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS).